

«МИРОВАЯ НАУКА: ПРОБЛЕМЫ, ВОЗМОЖНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ».

Материалы международной
научно-практической конференции

(15-16 августа 2024)

Muxtorova Zilola Ziyoviddin qizi
Toshkent amaliy fanlar universiteti

ELEKTRON TA'LIM HAQIDA TUSHUNCHA

Annotatsiya. Bugungi globallashuv jarayonida ta'limning jadal elektronlashib borayotganiga barchamiz birdek guvoh bo'lmoqdamiz. Elektron ta'lim tizimi o'quvchilarga barcha o'quv materiallaridan to'plangan bilimlarni turli test to'plamlaridan foydalangan holda o'z-o'zini tekshirish va shu material ustida qayta ishlash imkoniyatini bermoqda. Ta'limda ham bir muncha murakkabliklar paydo bo'layotgan bir paytda elektron ta'lim vositalari o'quvchining o'zlashtirish xususiyatini anchagina yengillashtirmoqda desak yanglishmagan bo'lamiz. Ushbu maqolada elektron ta'limdan foydalanishning hamda uning muhimligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Moodle, e-learning, oliy ta'lim, ta'lim modeli.

Mukhtarova Zilola Ziyoviddin qizi
Tashkent University of Applied Sciences

CONCEPT OF ELECTRONIC LEARNING

Abstract. In today's globalization process, we are all witnessing the rapid electronicization of education. The e-learning system gives students the opportunity to self-check the knowledge gathered from all educational materials using various test sets and work on this material. At a time when some complications are emerging in education, we would not be wrong to say that electronic learning tools are making the student's learning process much easier. This article discusses the use of e-learning and its importance.

Key words: Moodle, e-learning, higher education, educational model.

Elektron ta‘lim - bu platformalar yoki raqamli muhitlar orqali bilimlarga kirishni targ’ib qiluvchi ta‘lim modeli hisoblanadi.

Elektron ta‘lim resurslari yordamida darslarni tashkil etish jarayoni, bunda talabalarning olayotgan bilimlarini na faqat eshitish, balki ko’rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g’oya va mazmunini chuqur anglab yetishlariga samarali yordam beradi.

Raqamli axborot va internet resurslaridan foydalanishning huquqiy asoslarini bilish zamonaviy o‘qituvchi uchun juda muhim, chunki u ham elektron resurslarning iste‘molchisi, ham ularni ishlab chiquvchisi sifatida ishlay oladi. Masofaviy ta‘lim texnologiyalari doirasida elektron materiallardan foydalangan holda o’qituvchi talabalarni mahalliy va global tarmoqlardan foydalangan holda ma‘lumot almashishga jalb qiladi. O’qituvchi Internetdan qanday qilib qonuniy ravishda foydalanishi mumkinligini bilishi muhimdir. U o’z talabalari bilan tarmoq aloqasini tushunarli qonuniy asosda qurishi, ularning e‘tiborini muammoli masalalarga qaratishi va malakali axborot xatti-harakatlarining namunalarini ko’rsatishi kerak.

Elektron ta‘lim platformalarining ham yutuqlari va kamchiliklari mavjud bo’lib, bunga bafurja to’xtalib o’tsak.

Ushbu turdagi platformalarning ba'zi bir afzalliklari:

- Avvalambor moslashuvchan va arzon o’qitish.
- Internet bilan texnologik uskunalar kuchining birlashtirilganligi.
- Geografik va vaqtinchalik masofalarni bekor qilish.
- Minimal bilim bilan platformadan foydalanishga imkon beradi.
- Taklif qilingan vaqtda o'rganish va tezligidagi erkinlik.

Elektron ta‘lim platformalarining kamchiliklari

- Yuzma-yuz kursdan ko’ra talabning va bosimning yuqoriligi.
- Yuklangan o’quv materiallarining kamligi

o O’qituvchilar uchun yanada noqulaylik, chunki siz nafaqat o'zingizning mavzuni o’rgatishni, balki AKTni o'qitish haqida ham bilishingiz kerak.

o Talabalarga darsdan chalg’ish uchun vaqtning yetarliligi.

o Ta‘limdan chalg’ituvchi omillarning hila-xilligi.

Elektron ta‘lim vositalaridan foydalanishda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratish kerak bo’ladi:

– o’quv materiallarga qo’yiladigan uslubiy talabalarni ishlab chiqish;

– animatsion dasturlardan foydalanish davomiyligini 25–30 minutdan oshirmaslik;

– namoyish etilayotgan mavzuga doir tushunchalar o’qituvchi va talabalar tomonidan ikki tomonlama aloqa tarzida muhokama etib borilishi;

– namoyish etilib borilayotgan lavhalarning talaba tomonidan mustaqil ravishda qayta ishlab, yangi tushunchalarni shakllantirib borishiga erishish;

– o’qitish natijalarini baholash me‘zonlarini aniqlash.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoev o‘tkazilgan O‘zbekiston yoshlari forumiga tashrif buyurib, nutq so‘zlaganda «Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar», deb ta’kidlab o‘tgan edi.

Dars jarayonida zamonaviy pedagagik texnologiyalarni qo‘llash, zamonaviy axborot texiologiyalaridan foydalaiish ta’lim jarayoni sifati va samaradorligini

oshirishga xizmat qiladi. Buniig uchun fanlarni o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydananish ijobiy natijalarga erishishga imkon bermoqda. Bunday vositalarni tafsivlovchi atamalar va tushunchalarni kiritishga turli yondashuvlar mavjud. Ko‘pincha ilmiy va o‘quv-metodik manbalarda ular pedagogik dasturiy vositalar, kompyuterli o‘quv vositalari, o‘quv kompyuterli dasturlar, o‘quv maqsadli pedagogik vositalar deb nomlanadi. Ushbu atamalar ro‘yxatini yana davom ettirish mumkin. Biz kompyuter va telekommunikatsiya texnikalaridan foydalanib ishlaydigan va bevosita ta’lim oluvchilarni o‘qitishda qo‘llaniladigan vositalarni nomlash uchun o‘qitishning elektron vositalar» atamasidan foydalanamiz. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish o‘qitishni takomillashtirish, ya’ni yangi pedagogik texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng targ‘ib qilish, kompyuterli avtomatlashtirilgan o‘qitish tizimini ta’limda qo‘llash, yangi texnikaviy va didaktik vositalar hamda multimedia imkoniyatlaridan foydalanish, masofaviy ta’limni joriy qilish orqali bajariladi.

O‘qitishga texnologik yondashish o‘tgan asrning 50 yillarida amerikalik pedagog olimlar tomonidan olib borilgan. Lekin o‘qitish texnologiyasi o‘zining rivojlanish tarixiga ega bo‘lib, uning shakllari har doim axborot vositalari manbaiga bog‘lik, holda takomillashib kelgan. Yozuv ixtiro qilinishidan avvalgi davrda hamma to‘plangan axborotlar og‘zaki shaklda shakllangan. Odam bir vaqtning o‘zida ham bilimlar yaratuvchisi, ham saqlovchisi, ham uzatuvchisi bo‘lgan. Yozuv ixtiro qilinishi fikr rivojlanishida burilish davri bo‘ldi. Yozuv fikrni tekshirib, ob’ektiv, mustaxkam bo‘lishiga va uni rivojlanishiga imkon berdi. Axborotni saqlash manbaning paydo bo‘lishi bilimlarni uzatish jarayonini osonlashtirdi. Kitoblarning chop qilinishi esa aqliy mexnat doirasida inqilob yasadi va ziyolilar sinfining paydo bo‘lishiga olib keldi. Ular, o‘z navbatida, davlat ta’lim tizimini hamda o‘qitish jarayonida ―auditoriyadars‖ tizimini shakllantirishga asos yaratdilar. Auditoriya-dars doirasida o‘qitish jarayonining texnologiyasi shakllandi va rivojlandi. Ushbu texnologiya kitob bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirishdan iborat edi. Bular tez o‘qish

ko‘nikmasi, o‘qitish turlari, konspektlash, xotirada saqlab qolish yo‘llari, adabiyotlarni qidirishpi uyushtirish ko‘nikmasi, ma’lumotlar bilan ishlashdir.

Mutaxassislar o‘qitish texnologiyasi tushunchasi va uning rivojlanishini uch bosqichga bo‘lib o‘rganish lozim deb hisoblaydilar.

Birinchi bosqich — o‘qitish jarayonini faqat o‘qituvchining o‘zi olib borar edi. Ta’kidlaganidek, inson tajribasi o‘qitish texnologiyasi funksiyasini bajargan.

Ikkiichi bosqich — darslik va qo‘llanmalar chop etila boshlagandan so‘ng o‘qitish texnologiyasi mazmunida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘qituvchiga yordam beruvchi turli didaktik materiallar vujudga keldi.

Uchinchi bosqich — o‘qitish texnologiyasi mazmunan yanada boyidi. O‘qituvchi va talabalar uchun yuqoridagilar qatoriga audio-video texnik vositalari, o‘rgatuvchi mashinalar ham qo‘shildi.

O‘tgan asrning 60 yillarida ta’lim texnik vositalarining rivojlanishi axborot sig‘imi va axborot o‘tkazish tarmoqlarini kengaytirdi.

Axborot saqlashning yangi usullari — magnit, ramqali optik yozuvlar va ular asosida yaratilgan magnit disklari, disketalar, kompakt disklar, CD-ROM kabilarning paydo bo‘lishi axborot saqlashnish kompyuterlashtirilgan tizimi, lazerli aloqa tarmog‘i, mikroelektron qurilmalar va boshqa axborot vositalaridan o‘quv jarayonida foydalanishga yo‘l ochdi. Natijada o‘qitish takomillashdi, ―Kompyuter texnologiyasi‖ va ―Yangi axborot texnologiyasi‖ kabi tushunchalar vujudga keldi. Bu texnologiyalar pedagogik texnologiyani amalga oshirishda zamonaviy texnik vosita sifatida qo‘llana boshlandi.

Asrlar davomida odamzodning madaniy taraqqiyoti texnik ixtirolar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Richag, gildirak, blok ibtidoiy odamlarga og‘ir yuklarni ko‘tarish va tashishga imkon berdi. Bu, o‘z navbatida, qo‘l hunarmandchiligiga yo‘l ochdi. Qo‘l hunarmandchiligi asosida dehqonchilik, quruvchilik, dengizda suzish kasblari rivojlandi. Amaliy kunikmalarning to‘planib borishi sekin-asta nazariy bilimlarga yo‘l ochib berdi. Lekin qo‘l kuchiga asoslangan turmush jarayonida maxsulot ishlab chiqarish chegaralangan

edi. Hunarmand o‘stalarning kasb mahorati individual bo‘lib, keng ommaga yoyilgan. Ular kasb sirlarini o‘rnak sifatida shaxsiy mehnatlari orqali shogirdlariga o‘rgatganlar. Taraqqiyot, ijtimoiy va madaniy rivojlanish sust bo‘lgan.

XVI asrga kelib ixtiro qilingan mexanik qurilmalar muskul kuchini chegaralay boshladi. XVIII asrdagi ilmiy izlanishlar ishlab chiqarish sohasidagi revolyusiyaga turtki berdi. Par mashinasining ixtiro qilinishi natijasida hamma muskul kuchi bilan ishlaydigan dastgohlar par mashinasi yordamida xarakatlanadigan dastgohlarga almashtirildi. Ixtirochilik, bilimga bulgan chanqoqlik ushbu davrda avj oldi. Ilmdagi va ishlab chiqarishdagi o‘zgarishlarga qaramay, kelajak avlodni o‘qitish usullari unchalik o‘zgarmadi. Asrlar davomida kitob ilm olishda asosiy yordamchi bo‘lib qolaverdi. Albatta, o‘qituvchilar chyot, doska, globus kabilardan avvallari ham foydalanganlar. Lekin auditoriyalarini xaqiqiy mexanizatsiyalash XX asrning ikkinchi yarmidan amalga osha boshladi. Bu davrda elektron texnika, hisoblash texnikasi, yadro energetikasi, kosmos, kibernetika sohasida katta kashfiyotlar qilindi, ular asosida yangi texnika va texnologiyalar yaratildi, avtomatlashtirilgan zavodlar barpo qilindi.

Xulosa qilib aytganda fan va texnika sohasidagi bu ulkan o‘zgarishlar shu sohada ishlovchi kadrlar sonining, chop qilinayotgan maqolalar sonining va iqgisodiy xarajatlarning eksponensial o‘sishiga olib keldi. Birinchidan, informatsiya bitmas-tuganmas bo‘lib, oson va tez nusxalanadi, tejamli, ekologik toza, saqlash vaqtiga bog‘liq emas. Aholi sonining o‘sib borishi bilan bir qatorda u borgan sari ―yosharib‖ ham bordi. O‘suvchilar sonining uzluksiz o‘sishi va ularning zamonaviy ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan ilm miqdori, ya’ni informatsiya miqdorining ko‘payib borishi maorif sohasida qiyin muammolarni vujudga keltirdi. Ma’lumki, o‘quv rejalarini va o‘qitish soatlarini cheksiz oshirish mo‘mkin emas. Shu sababli o‘qitish jarayonining ichki imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, ya’ni uni jadallashtirish, optimallashtirish zaruriyati tug‘ildi.

O‘qitish jarayonini jadallashtirish va optimallashtirish deganda o‘quvchi va pedagogning mehnat samaradorligini oshiruvchi, vaqt birligi ichida o‘quv informatsiyasi miqdorini o‘quvchilarga yetkazishni ko‘paytiruvchi va uni yaxshi o‘zlashtirishga imkon beruvchi tadbirlar nazarda tutiladi. Pedagogik texnologiyada o‘qitish jarayonini jadallashtirish va optimallashtirish tadbirlaridan biri o‘quv mazmunini bayon qilishda kurgazmalilik tamoyilini targ‘ib qilinishi, zamonaviy kompyuterli audio-video, multimedia imkoniyatlaridan keng foydalaniщdir.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, elektron ta'lim platformalarining afzalliklari va kamchiliklari soni jihatidan bir-biriga juda o'xshashdir, agar siz o'qitishning bir turiga boshqasidan ko'ra ko'proq tanlasangiz, bu sizga bog'liq.

Adabiyotlar:

1. Xamidov, Yo. Yo. Ta‘lim samaradorligini oshirishda elektron ta‘lim resurslarining o_rni / Yo. Yo. Xamidov. — Tekst : neposredstvennыy // Molodoy uchenыy. — 2019. — № 21 (259). — S. 611-612. — URL: https://moluch.ru/archive/259/59591/ (data obraщeniya: 04.05.2022).

2. Virtual haqiqat tizimlari: darslik usuli, qo'llanma / M. I. Osipov tomonidan tuzilgan. - Nijniy Novgorod: Nijniy Novgorod davlat universiteti, 2012.